

ILM, ADOLAT VA HIKMAT YO'LIDAGI AVLODLARARO VORISLIK



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681458>

Islamova Gulzamon Madiyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti o'qituvchisi
gulzamonislamova4@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-falsafiy qarashlar bilan Mirzo Ulug'bek davridagi ilmiy-ma'naviy uyg'onish o'rtasidagi uzviylik tahlil qilinadi. Tadqiqot asosiy e'tiborni avlodlararo vorislik konsepsiyasiga qaratadi va ikki tarixiy shaxs tafakkuri orqali Markaziy Osiyo madaniy-falsafiy an'analarining izchil rivojini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Qutadg'u bilig, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, vorisiylik, adolat, ilm, siyosiy tafakkur.

INHERITANCE THROUGH KNOWLEDGE, JUSTICE AND WISDOM

ABSTRACT

This article analyzes the continuity between the socio-political and moral-philosophical ideas presented in Yusuf Khass Hajib's Qutadghu Bilig and the scientific and spiritual renaissance during the era of Mirzo Ulughbek. The research focuses on the concept of intergenerational intellectual heritage and reveals the consistent development of Central Asian cultural and philosophical traditions through the legacy of these two historical figures.

Keywords: Qutadghu Bilig, Yusuf Khass Hajib, Mirzo Ulughbek, continuity, justice, knowledge, political thought.

Kirish. Turkiy-islomiy uyg'onish davrida shakllangan siyosiy-falsafiy tafakkur Sharq dunyosining ma'naviy yuksalishida muhim o'rinn tutgan. Bu borada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va Mirzo Ulug'bek faoliyati o'rtasida mazmunan chuqur falsafiy va ma'naviy bog'liqlik mavjud. "Qutadg'u bilig" davlat boshqaruvi, axloqiy tartib va ilm-fanning ahamiyatini falsafiy asosda yoritgan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek bu g'oyalarni ilmiy-amaliy faoliyat orqali mustahkamladi. Ushbu maqolada ana shu ikki buyuk siymoning qarashlari asosida avlodlararo vorislik an'anasi tahlil qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida ham ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosini chuqur o'rganish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-

2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining beshinchi ustuvor yo‘nalishida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” nomli yo‘nalishning 73-maqсадida aynan “Buyuk ajodolarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” vazifasi belgilangan. Ushbu davlat siyosati doirasida Yusuf Xos Hojib va Mirzo Ulug‘bek kabi siymolarning falsafiy qarashlari va ilmiy merosini tahlil qilish, ularning o‘zaro vorislik munosabatlarini ochib berish ayni muddaodir. [1]

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi o‘z davrining ilm-fan taraqqiyoti uchun ulkan turtki bo‘lganligi, uning astronomik ishlari nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlari tomonidan ham e’tirof etilganligi bilan ajralib turadi. Bu haqiqatni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta’kidlaydi:

“Mirzo Ulug‘bekday benazir allomaning o‘rtta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Mirzo Ulug‘bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan astronomik jadvalni yaratdi. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” deb nomlangan Ulug‘bek astronomik jadvali o‘rtta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgan.” [2]

Ushbu fikrlar Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati zamirida yotgan falsafiy tafakkur va ilmgan sadoqat tamoyillarining tarixiy chuqurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning sof amaliy yondashuvni tanlashi, ilmiy kuzatuv va aniqlikka asoslangan metodologiyasi orqali o‘z davrida fanning universal tili bo‘la olganligi avlodlar uchun ibrat manbai hisoblanadi. Bu jihatlar “Qutadg‘u biling”da ilgari surilgan aql, bilim vaadolat tamoyillari bilan uyg‘unlikda, o‘zaro vorislik asosida izchil davom etayotganini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Maqolada tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy uslub, matnshunoslik va konseptual yondashuvlardan foydalanildi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” asari va Mirzo Ulug‘bek hayoti hamda asarlaridagi g‘oyalar o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlar asosida avlodlararo bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi asosiy falsafiy tushunchalar “ilm”, “adolat”, “hikmat”, “donishmandlik” konsepsiyalari atroflicha tahlil qilindi.

Natijalar. Ilm-fan tamoyillaridagi vorislikni quyidagilarda ko‘rish mumkin, “Qutadg‘u biling”da ilm – jamiyat va davlat boshqaruving tayanchi sifatida talqin etilgan. Mirzo Ulug‘bek bu g‘oyani real hayotda ilmiy maktablar ochish, observatoriya qurish orqali amalda ko‘rsatdi. Ulug‘bek o‘z davrida ilm bilan davlat boshqaruvinu uyg‘unlashtirgan ilk hukmdorlar sirasiga kiradi.

Adolat konsepsiyasining davomiyligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi, Yusuf Xos Hojib adolatni davlat poydevori sifatida ko‘rsa, Mirzo Ulug‘bek tarixiy manbalarda adolatparvar hukmdor sifatida tilga olinadi. Ikkala siymo ham “adolat”ni nafaqat axloqiy qadriyat, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ilgari surgan.

Ma'naviy-donishmandlik an'anasi quyidagilarda namoyon bo'ladi, "Qutadg'u bilig" donishmandlikni hukmdorning asosiy sifati deb biladi. Mirzo Ulug'bek esa o'zi bevosita ilm bilan shug'ullangan, tafakkurli hukmdor bo'lgan. Bu jihat ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan birlashtiradi.

Mirzo Ulug'bekning boy ilmiy-merosini tadqiq qilish jarayoni bir necha asrlar davomida jahon ilmiy hamjamiyatining e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, XVII asrdan boshlab bu yo'nalishda muayyan ilmiy izlanishlar boshlangan. Ingliz va yevropalik olimlar Jon Grivs, Tomos Xayd, Frencis Beyli, shuningdek, fransuz tadqiqotchisi L. Sediyo, rus sharqshunoslari V.Bartold, V.Vyatkin, nemis tadqiqotchisi Y.Knobl, turkiyalik olim T.N.Qoriniyoziy va o'zbek olimlaridan G'.Jalolov kabi ko'plab olimlar Mirzo Ulug'bek ijodini turli jihatlardan tahlil qilganlar.

Mazkur izlanishlarda Ulug'bekning nafaqat astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, balki u ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ko'rsatgan homiylik faoliyati, tarix, musiqa nazariyasi va adabiyotga qo'shgan hissasi ham atroflicha yoritilgan. Shunga qaramay, bugungi kunda ham Mirzo Ulug'bek shaxsiyati va uning ilmiy merosi global ilmiy doirada tadqiqot mavzusi bo'lib kolmoqda.

XX asr boshidan boshlab O'zbekistonda ham Mirzo Ulug'bek merosini o'rghanishga katta e'tibor qaratildi. Uning siyoshi va ilmiy faoliyati tarixiy asarlar, tazkiralari, bayozlar va badiiy adabiyotda turli uslubiy yondashuvlar orqali o'ziga xos tarzda ulug'landi. Xususan, "Qomuslar bosh tahririysi" tomonidan 1996-yilda chop etilgan "Temur va Ulug'bek davri tarixi" to'plamida bu boradagi muhim manbalar jamlangan.

Mazkur to'plamda Sharq tarixshunosligi va adabiyotiga mansub bir qator muhim asarlar, jumladan, Shamsuddin Ali ibn Jamolulislomning 1399–1403 yillarda yozilgan "Temurning Hindistonga qilgan yurishlari kundaligi", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Hofizi Abru nomi bilan mashhur bo'lgan Shohobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh al-Havofiyning "Zubdat ut-tavorix" asari, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si hamda Shayx Ahmad Taroziyining turkiy tilda yozilgan "Funun ul-balag'a" asari Ulug'bek faoliyatining turli jabhalarini aks ettiradi. Shuningdek, tarixchi Xondamirning "Habib us-siyar" asarida ham Ulug'bek shaxsiyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu manbalar Ulug'bek merosining zamonaviy ilm-fan taraqqiyotidagi o'rnini belgilashda muhim epistemologik asos vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtai nazardan, Mirzo Ulug'bek merosini o'rghanish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki milliy o'zlik va ilmiy tafakkurni mustahkamlash yo'lida ham katta ahamiyatga ega.[3]

Munozara. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari surilgan axloqiy-ijtimoiy tamoyillar Temuriylar davrida o'zining yangi bosqichini boshlaganini ko'rish mumkin. Mirzo Ulug'bek bu an'anani davom ettirib, ilm-fan orqali siyosiyadolat va ma'naviy uyg'onishni ta'minlashga harakat qilgan. Bu holat Markaziy Osiyoda shakllangan "donishmand hukmdor" modelining uzviy

rivoj topganidan dalolat beradi. “Qutadg‘u bilig”dagi siyosiy-falsafiy g‘oyalar keyingi asrlarda, xususan Mirzo Ulug‘bek davrida real harakatlar bilan to‘ldirilib, tarixiy vorislik sifatida qaralgan, deb o‘ylaymiz.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida osmon jismlari yulduzlar, burjlar, oy va Quyosh kabi samoviy unsurlar keng ko‘lamda tilga olingan. Ushbu obrazlar orqali u inson hayoti, taqdir, davlat boshqaruvi va axloqiy tamoyillarni ramziy-falsafiy tarzda ifodalagan. Shuningdek, asarda osmon jismlarini ramziy ma’noda qo‘llab, inson hayoti va jamiyatdagi tartib-intizomni samoviy muvozanat bilan bog‘laydi. U burjlar va yulduzlar orqali olamning yaralishi va uning ichki ziddiyatlarini tasvirlaydi:

“Burjlarning uchtasi o‘t, uchtasi suv, uchtasi yel, uchtasi esa tuproq bo‘ldi. Olam (ajun) va el shulardan yaraldi. Ularning biri boshqasiga yovdir. Bu o‘rinda: ‘o‘t – suv, el – tuproq qarama-qarshiligi nazarda tutilmoqda. Shundan olamning yaralishidagi ziddiyat qonuni yuzaga chiqadi.” Bu baytlar orqali muallif olamning to‘rt unsur – o‘t, suv, havo va tuproqdan tashkil topganini va ularning o‘zaro qarama-qarshiligi orqali hayotiy muvozanat yuzaga kelishini ifodalaydi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib yulduzlar va burjlarning inson taqdiriga ta’sirini quyidagicha tasvirlaydi:

“Qo‘zi – ko‘klam burji, so‘ng Ud keladi. Erandiz yulduzi Quchiq bilan yaqindir. Arslon bilan Bug‘doyboshi qo‘shnidir. Ulgu esa Chadan va Yoy bilan eshdir. So‘ng O‘g‘laq, Ko‘nak va Baliq burjlari keladi, bular tug‘sа, osmon yorishadi.”[4]

Bu baytlar orqali muallif burjlar ketma-ketligini va ularning tabiatdagi o‘zgarishlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Har bir burjning o‘ziga xos xususiyatlari borligi va ularning inson hayotiga ta’siri haqida fikr yuritadi. Shuningdek, oy sadoqat va go‘zallik, yulduzlar esa inson taqdirining osmon bilan bog‘liqligini ifoda etuvchi obraz sifatida qayta-qayta tilga olinadi. Bu timsollar Mirzo Ulug‘bekning ilmiy qarashlari bilan ichki uyg‘unlik hosil qiladi. Ulug‘bek o‘zining “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarida minglab yulduzlarning koordinatalarini aniq hisoblab chiqqan, osmon jismlarining harakat qonuniyatlarini aniqlagan. Yusuf Xos Hojib samoviy tartibni axloqiy muvozanat va siyosiy barqarorlik timsoli sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek ushbu tartibni matematik va astronomik asosda isbotlagan. Bu ikki siyomoning qarashlari orqali samoviy olam bilan inson jamiyatni o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasi avlodlararo falsafiy vorislik sifatida qaralishi mumkin.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,
Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim, bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav ilmi osmoniy –
Ki, andin yozdi “Ziji Ko’ragoniy”.
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom. [5.]

Ikkinchi Renessans davrining buyuk namoyondalaridan bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek, o‘z davrining buyuk davlat arbobi, o‘z Vatani va xalqini ma’naviyati, madaniyati, ma’rifatini yuksak cho‘qqilarga ko‘targan Sharqning eng buyuk astronomi hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek Amir Temurning kenja o‘g‘li Shohruxmlirzoni to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi edi. Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22- mart sanasida Eronning Sultoniya shahrida, bobosi Amir Temurning harbiy yurish paytida tug‘ilgan. U 1437 yilda o‘zining astronomiya sohasidagi asari bo‘lgan “Ziji Ko’ragoniy” asarini yozib tugatadi. Ushbu asarida yil hisobi, sayyoralar nazariyasi, astronomiya muammolari bayon etilgan bo‘lib, 1018 yulduzning jadvali ham berilgan edi. [6]

Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” nomli asari ham borki, unda mo‘g‘ullar imperiyasining tarixi bayon etilgan. Bundan tashqari, Ulug‘bek mantiq, fiqh, musiqa nazariyasi va adabiy uslub nazariyasini yaxshi bilar edi. Ulug‘bekning tadqiqotlari astronomiya taraqqiyotida muhim davr ochdi. U yer yuzining har qanday nuqtasining koordinatlarini aniqlaydigan vosita ishlab chiqishga intildi, quyosh va oy tutilishlarini oldindan aytib berish usuli, yil hisoblarining biridan ikkinchisiga o‘tish qoidalari, yil fasllari o‘zgarishlarining qonuniyligini ochib berish, osmoniy jismlar harakatining qonunlarini tushuntirishga harakat qildi. Asosiy kuzatish vositasi sifatida sekstant (burchak o‘lchash asboblaridan biri) xizmat qildi. Masalan, ushbu asbob yordamida quyosh yilining aniq miqdori o‘lchandi 365 kecha va kunduz 6 soat 10 daqiqa 8 soniya. [7]

Ulug‘bek tomonidan asos solingan astronomiya maktabi o‘scha zamon ilmiy qarashlari shakllanishida katta o‘rin tutdi. Boshqa mamlakatlardan astronomiya bo‘yicha eng yaxshi mutaxassislarini taklif qilgan Ulug‘bek, o‘z atrofiga iste’dodli olimlarni to‘pladi. Eronning Koshon shahridan yirik riyozidون va astronom bo‘lgan G‘iyosuddin Jamshid al-Koshiy (vaf. 1430) taklif qilingan edi.

O‘rta asrlarda Sharqda, keyinchalik G‘arbda ilm-fan rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan qomusiy allomalarimizdan biri Mirzo Ulug‘bek – Muhammad Tarag‘ay o‘z davrida tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi asosida Samarqand akademiyasiga asos solgan. Birinchidan, Mirzo Ulug‘bek asos solgan akademianing falsafiy-ilmiy mohiyatini anglash orqali undagi nochiziqli tafakkur elementlarini kashf etamiz va uning akademiyasida fanlararo integrasiya mavjud bo‘lganligining ilmiy asoslarini topamiz. Ikkinchidan, g‘arblik olimlar da’vo qilayotgan aniq va tabiiy fanlar poydevori G‘arbda emas, aynan Markaziy Osiyodan, jumladan, Ulug‘bek akademiyasidan boshlanganini va bu ilmiy haqiqat ekanligini anglaymiz.

Ko‘pgina adabiyotlar, jumladan, Qori Niyoziy risolalari va boshqa ilmiy adabiyotlarda Mirzo Ulug‘bek astronomiya akademiyasini tashkil etgan olim sifatida ta’riflanadi. Vaholanki, o‘scha davrda nafaqat Samarqand, Markaziy Osiyo

va Xurosonda fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, geodeziya, geografiya, mantiq, falsafa, matematika, tarix, mineralogiya, adabiyot va boshqa dunyoviy hamda diniy ilmlar rivojlandi. Allomaning sa'y-harakati bilan me'moriy san'at va arxitektura sohasi ham jadal sur'atda yuksaldi. Ulugbekning buyrug'i bilan Samarqand shahridagi Ulugbek madrasasi, Ulugbek rasadxonasi, Shohizinda ansamqli, Buxoro shahri va G'ijduvon tumanidagi Ulugbek madrasalari, Shahrisabzdagi Ulugbek masjidi va boshqa me'moriy san'atning nodir namunalari bunyod etilgani akademiya ilmiy Kengashining mahsuli edi. Shu nuqtai nazardan Mirzo Ulugbek an'anaviy fikrlardan yuqoriroq - nochiziqli va fraktal tafakkur egasi ekanligidan dalolatdir. Ilmiy tadqiqotchilar Mirzo Ulugbek ilmiy merosi va u asos solgan akademiyani faqat astronomik jihatlariga ko'proq urg'u beradi. Vaholanki, allomaning ilmiy merosi va akademiyasining ilmiy tadqiqotlari faoliyati zamirida falsafa, etika va mantiq ilmlari muhim mavqega ega hisoblanadi. Shuning uchun Samarqand akademiyasi nafaqat astronomiya va aniq fanlar, balki falsafiy-mantiqiy institut ham hisoblanadi. Ulugbek akademiyasidagi barcha tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar, kashfiyotlar falsafa va mantiq ilmlari qonuniyatları asosida amalga oshirilgan. Ammo bu haqda hali-hanuz nafaqat darsliklar, allomaga oid ko'plab risololarda ham ilmiy ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun ajdodimizning boy ma'naviy merosini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratishda muhim qadam bo'ladi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Yusuf Xos Hojib va Mirzo Ulugbek o'rtasidagi avlodlararo vorislik ilm,adolat va hikmat asosidagi tafakkurda yaqqol namoyon bo'ladi. "Qutadg'u bilig" g'oyalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'z tasdig'ini topganini Mirzo Ulugbek hayoti va faoliyati misolida ko'rish mumkin. Ushbu falsafiy izchillik Markaziy Osiyo tarixida ma'naviy yuksalishning poydevoriga aylangan. Bugungi kunda bu merosni qayta o'rganish va uni yangi zamon kontekstida tadbiq etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari surilgan siyosiy, axloqiy va ilmiy g'oyalari Temuriylar davrida, xususan Mirzo Ulugbek faoliyatida o'zining amaliy davomiyligini topdi. Ilm-fan,adolat va donishmandlik singari tamoyillar har ikki siyomonig qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi. "Qutadg'u bilig"da ilm davlat boshqaruvida tayanch sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, Mirzo Ulugbek bu g'oyani real hayotda observatoriya barpo etish, yirik ilmiy asarlar yaratish orqali ro'yogga chiqardi.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojib osmon jismlari va burjlar orqali inson hayoti va jamiyatdagi tartibni falsafiy-ramziy tarzda ifodalagan bo'lsa, Mirzo Ulugbek bu mavzuni ilmiy asosda chuqur tadqiq etgan. Bu uyg'unlik ikki siyomonig fikriy-falsafiy merosi o'rtasida uzviy vorislik mavjudligini ko'rsatadi.

Mirzo Ulugbekning boy merosi nafaqat ilm-fan tarixida, balki ma'naviy o'zlikni anglash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. U sharqona "donishmand hukmdor" modelining porloq timsoli sifatida tarix sahifasida o'ziga xos iz qoldirdi. Shunday ekan, Yusuf Xos Hojib va Mirzo Ulugbek qarashlaridagi

uzviylikni o‘rganish – milliy tafakkur, tarixiy vorislik va ma’naviy merosni chuqur anglash uchun muhim falsafiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. Karimov I.A. Ulug‘bek ruhi barhayot // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 320 b.
3. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. – T.: O‘zbekiston. 2011. – 704 b.
4. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent. 2007.
5. Navoiy A. Farhod va Shirin. G‘afur G‘ulom. – T.: 2020. – 452 b.
6. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – T.: O‘qituvchi. 1991.
7. Falsafa. Axmedova M.A. muharrirligi ostida. – Toshkent.: 2006. - 93 b.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2005.